

RAQAMLASHTIRISH VA O’ZBEK TILI MAVQEYI

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich,
*O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori, pedagogika fanlari doktori, professor*

Mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”. Bugungi kunda IT-texnologiyalari, raqamlashtirish xizmatlari o‘zgarishlar va innovatsiyalarga boy sohaga, inson hayotini osonlashtiradigan qulay va samarali vositalardan biriga aylandi. Ushbu sohadagi o‘zgarishlar tez va jadal odimlash, doimiy o‘zgaruvchanlik xarakteriga ega. “Raqamli O’zbekiston-2030” davlat dasturi natijasida O’zbekiston aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-maishiy sohalarda IT-texnologiyalari yutuqlaridan har kuni foydalanmoqda. Biroq “Raqamli O’zbekiston-2030” davlat dasturini hayotga tatbiq etishda o‘zining yutuq va kamchiliklari ham mavjud. IT texnologiyalari yutuqlari, jamiyatni raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intellektning rivojlanishi, albatta, til tizimiga ham ta’sir ko’rsatdi, muloqotni virtual darajaga olib chiqdi. Doimiy o‘zgaruvchan raqamli “olamdag” o‘zbek tilning bugungi holatini hisobga olish, davlat tilining raqamli tizimdag“jonli hayotini” ko’rsatadi.

Bugungi cheksiz axborotlar oqimi davrida texnika va texnologiyalar taraqqiyotini, ayniqsa raqamli texnologiyalarni tilshunoslikka va o‘zbek tilini o’qitish metodikasiga doir tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirish, fan-texnika yutuqlarini tatbiq etgan holda tilni har jihatdan chuqurroq o‘rganish hamda milliy tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilining qo’llanish imkoniyatlarini kengaytirish, uning nufuzini oshirish singari vazifalar tilshunoslarimiz va metodist olimlarimiz oldida turgan eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Zero, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilab qo‘yilgan davlat tilini rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash, bu sohada xalqaro hamkorlikni amalga oshirish; davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog‘ida munosib o‘rin egallashini ta’minlash, o‘zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish, davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o‘zbek tilini o‘rganish istagida bo‘lgan

“RAQAMLASHTIRISH DAVRIDA O’ZBEK TILINI DAVLAT TILI VA XORIJIY TIL SIFATIDA O’QITISH MASALALARI: MAHALLIY VA XORIJIY TAJRIBA”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami

chet el fuqarolari uchun o’zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish kabi vazifalar kun tartibiga qo‘yilgan.

“O’zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonunining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Prezident qarorida “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o’zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, beba ho ma’naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotida g‘oyat muhim o‘rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat” ekani alohida ta’kidlab o‘tilgan. Darhaqiqat, til – millat tafakkurining beba ho xazinasi, ulkan boyligi sifatida ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda o’zbek tili respublikamizda davlat tili va millatlararo aloqa vositasi sifatida amal qilmoqda. Istiqlol o’zbek tilining jahon miqyosiga ko‘tarilishiga ham imkon yaratdi.

So‘nggi yillarda jahonning bir qancha oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva davlat universiteti Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Qozon davlat universiteti (Rossiya), Sukuba universiteti (Yaponiya), Tokio universiteti (Yaponiya), Pekin markaziy milliy universiteti (Xitoy), Shanxay chet tillari universiteti (Xitoy), Lanjou universiteti (Xitoy), Shinjon ta’lim instituti (Xitoy), Pekin chet tillari instituti (Xitoy), Tegu va Pusan chet tillari universitetlari (Koreya), Jome’a Milliya universiteti (Hindiston), Baku davlat pedagogika universitetida (Ozarbayjon) o’zbek tili ta’limi yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, jumladan, “Markaziy Osiyoni o‘rganish tadqiqotlari markazi” (Fransiya), Bonn, Gumboldt, Fraye universitetlari (Germaniya), Izmir universiteti (Turkiya), Anqara universiteti (Turkiya), Kembrij universiteti (Angliya), Afg‘onistonning barcha universitetlarida o’zbek tilini o‘rgatish bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda.

Barchamizga ma’lumki, mamlakatimizda 5850-sonli, 6084-sonli Prezident Farmonlari ijrosi doirasida “2020-2030 yillarda o’zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi” qabul qilingan bo‘lib, unda xorijliklar uchun o’zbek tilini o‘rgatuvchi dasturlar yaratish; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini oshirish va xorijiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirish; xorijiy universitetlarda o’zbek tili kurslarini zarur ilmiy, o‘quv-uslubiy, badiiy adabiyotlar bilan ta’minalash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilgan. Shu farmonlar ijrosi doirasida O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti professor-o’qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan “Xorijiy tillarda so‘zlashuvchilar uchun o’zbek tilini intensiv o‘rgatuvchi multimedia mahsulotlarini yaratish” loyihasi,

uning asosida yaratilgan elektron darslik, ko‘p tilli lug‘atlar, so‘zlashgichlar, milliy-madaniy so‘zlar glossariysi bugungi kundagi dolzarb masalaning yechimlaridan biridir. Albatta, o‘zbek tilini xorijda faol targ‘ib etish, ona tilimizni o‘rganish istagida bo‘lgan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish, maxsus kurslarni tashkil etish kabi vazifalar hali yakuniga yetmadi. Mazkur vazifalarning hayotga tatbiq etilishi o‘zbek tilining xalqaro ko‘lamdagি obro‘-e’tiborini yanada oshirish bilan bir qatorda O‘zbekiston sha’nini yuksaltirishga xizmat qiladi.